

## ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARNI SAMARALI INKLYUZIV TA'LIM O'LISHINING SHASHLARI

**G'ofurova Sevinchoy, G'oiyova Nodira**

<sup>1</sup>Namangan davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti texnologik ta'lim yo'nalishi  
TXT BU 24 guruh talabasi

<sup>2</sup>Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20196765>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayoniga samarali jalb etishning asosiy pedagogik va psixologik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda inklyuziv ta'limni tashkil etishdagi mavjud muammolar turli ilmiy yo'nalishlar (defektologiya, psixologiya, sotsiologiya) nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy ta'lim tizimidagi islohotlar asosida inklyuziv muhitni shakllantirish, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish hamda jamiyatda tolerantlik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari, integratsiya, korreksion pedagogika, adaptiv o'quv dasturi, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, to'siqsiz muhit, o'qituvchi kompetensiyasi, ijtimoiy moslashuv

Inklyuziv ta'lim — bu ta'lim shakli bo'lib, unda har bir inson, jismoniy, ijtimoiy, hissiy, aqliy, lingvistik, intellektual va boshqa xususiyatlarga qaramay, umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olishi mumkin. Bunda nogironligi bo'lgan va nogironligi bo'lmagan bolalar uchun maxsus sharoitlar yaratiladi

Inklyuziv ta'lim tenglik va adolatni ta'minlaydi, bolalarni kamsitmasdan umumiy sinflarda o'qitadi. Bu ijtimoiy tenglikni oshiradi, jamiyatda hurmat va tushunishni rivojlantiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari — bu ta'lim jarayoniga qo'yiladigan maxsus shartlar va talablarga sabab bo'ladigan o'quvchilarda jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va ruhiy nuqsonlarning mavjudligi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va maktablarda inklyuziv ta'lim tashkil etilgan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim dasturlari moslashtirilgan o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi, bunda individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan yordam beradi

### ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARIGA EGA BO'LGAN BOLALARNING HUQUQLARI

Konstitutsiya – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining muhim mezon bo'lib, davlatning huquqiy asoslarini belgilaydi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi, shuningdek, davlat organlarining vakolatlarini va ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Darhaqiqat, huquqiy davlatda qonunlar adolatli va shaffof bo'lishi, xalq davlat organlariga emas, balki, davlat organlari xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga amal qiladi va unda belgilangan ijtimoiy adolat, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, adolatli sud tizimi va huquqiy himoya kafolatlanishi adolatni ta'minlashdagi muhim normalar hisoblanadi.

Konstitutsiya inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, har bir fuqaroga teng imkoniyatlar yaratishni davlatning eng muhim vazifalaridan biri

sifatida belgilaydi. Inson huquqlariga e'tibor qaratish, taraqqiyotning birinchi mezonidir, chunki fuqarolik jamiyatida har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishi kerak.

Bugungi kunda yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishi, inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Davlatimiz tomonidan jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lom bolalar qatoridan o'rin olib o'z qobiliyati, imkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga qaratilgan vazifalar chora-tadbirlar asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, Konstitutsiyamizda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqini ta'minlashga doir norma belgilanib, unga ko'ra fuqarolarni, ayniqsa, sog'lig'ida muammosi bo'lgan bolalarni ta'lim va tarbiya olishi uchun bog'cha, maktab, oliy ta'lim tashkilotlarida maxsus sharoitlarni yaratish ijtimoiy davlatning vazifalari sifatida e'tirof etilgan.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida so'nggi yillarda inklyuziv ta'lim g'oyasi, respublika miqyosida uni joriy etish masalalari tez-tez ko'tarilayotgan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim sohasida, ayniqsa, inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali har bir bolaga teng imkoniyatlar yaratish, jamiyatda adolat va tenglikni ta'minlash mumkin. Inklyuziv ta'lim — alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'limdir. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni joriy qilishning asosiy maqsadi, har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlariga qaramasdan, ularni ta'lim jarayonida ishonchli va teng huquqlar bilan ishtirok etishini ta'minlash hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning joriy etilishi jamiyatda tenglik va adolatni ta'minlash, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etishiga, ta'lim olish jarayonida ularni biror-bir shaklda kamsitishga yo'l qo'yilmasligiga xizmat qiladi. Bolalarni ijtimoiy jihatdan rivojlantiradi, ularning boshqalar bilan muloqot qilishini, turli guruhlarda ishlashini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish zamonaviy jamiyatda faqat ta'lim sohasidagi o'zgarishlarning emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik o'zgarishlarning ham kerakligiga ishora qiladi. Har bir bola, qanday sharoitda bo'lmasin, o'z qobiliyatlarini namoyon etish, ta'lim olish va jamiyatda to'liq huquqli a'zo bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak

Ta'lim terapiyasi ( ya'ni ET ) - bu o'rganishdagi farqlar , nogironliklar va qiyinchiliklarga duch kelgan shaxslarni davolash uchun qo'llaniladigan terapiya shakli . Ushbu terapiya shakli o'quvchilarning o'rganish muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan keng ko'lamlı intensiv aralashuvlarni taklif etadi. Ushbu aralashuvlar individual va ma'lum bir o'quvchi uchun noyobdir. Ushbu turdagi terapiya talabaga o'rganish qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi. Talaba akademik tushunchalariga yordam beradigan, shuningdek, ularga qayta ishlash, diqqatni jamlash va xotira ko'nikmalarini o'rgatadigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi. An'anaviy repetitorlik va ta'lim terapiyasi o'rtasida farq bor. An'anaviy repetitorlik, ayniqsa, akademiklar bilan shug'ullanadi, ta'lim terapiyasi esa ham axborotni qayta ishlash, ham akademiklar bilan shug'ullanadi. Ta'lim terapevti talabaga akademik kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam berish uchun turli xil metodologiyalar va o'quv materiallaridan foydalanadi.

Qayta ishlash - bu o'quvchilarning fikrlash va o'rganish usuli. Barcha o'quvchilar turlicha o'rganadilar va ma'lumotni noyob tarzda qayta ishlaydilar. Ma'lumot beshta sezgi orqali qabul qilinadi. Ba'zi o'quvchilar tomosha qilish (vizual o'rganish) orqali yaxshiroq o'rganadilar, boshqalari esa eshitish (eshitish) orqali yaxshiroq o'rganadilar. An'anaviy maktab sharoitida yomonroq natijalarga erishayotgan o'quvchilar eng yaxshi o'rganish (kinestetik o'rganish) orqali o'rganadilar. Agar bu o'quvchilarga eng zaif o'rganish tizimlarini mustahkamlash o'rgatilsa, o'rganish osonroq va samaraliroq bo'ladi.

inklyuziv ta'lim jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglarning kasbiy va psixologik tayyorgarligiga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'limda pedagoglarning individual yondashuvi, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish qobiliyati va ijtimoiy mas'uliyati muhim rol o'ynaydi. Shu bois, pedagoglarning malakasini oshirish, ularga metodik va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarur. Shuningdek, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va inkluziv ta'limga oid tamoyillarni amaliyotga samarali tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. inklyuziv ta'lim jarayonida pedagoglarning o'rni va roli alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayon faqat texnik vositalar yoki dasturlar bilan emas, balki insoniy yondashuv orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning psixologik va metodik tayyorgarligi inklyuziv ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. O'quvchilar ehtiyojlarini tushunish, individual yondashuvni qo'llash va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurati mavjud. Shuningdek, inklyuziv ta'limga oid tamoyillarni amaliyotga joriy qilishda pedagoglarning motivatsiyasi va ijtimoiy mas'uliyati muhim omillar sifatida baholandi. Bu borada ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan innovatsion metodlar samaradorligi alohida ta'kidlandi. Inklyuziv ta'limda to'siqsiz muhit — bu jismoniy, ijtimoiy, hissiy, aqliy, lingvistik, intellektual va boshqa xususiyatlardan qat'iy nazar, har bir kishining umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olishini ta'minlovchi muhit. Bunda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus sharoitlar yaratiladi: o'quv xonalarini moslashtirish, yangi o'qitish metodlari, moslashtirilgan o'quv rejalari, o'zgartirilgan baholash metodlari va boshqalar.

Inklyuziv ta'lim sinflari tashkil etilgan maktablar "To'siqsiz muhit" talablariga moslashtirilmoqda hamda nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Inklyuziv ta'lim jarayonlarini yanada takomillashtirish, pedagoglarning malakasini oshirish hamda nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun qulay muhitni kengaytirish bo'yicha tavsiyalar hamda ko'rsatmalar berilmoqda

Zamonaviy jamiyatda har bir insonning teng huquqli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, inklyuziv ta'lim tizimi global miqyosda keng ommalashib bormoqda. Ushbu ta'lim modeli imkonyatsi cheklangan bolalarni umumiy o'quv jarayoniga jalb etib, ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Lekin bu jarayonni samarali tashkil etish uchun maxsus pedagogik yondashuvlar, jumladan, adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini qo'llash zarurati paydo bo'ladi [9].

Adaptiv jismoniy tarbiya – bu imkonyatsi cheklangan bolalar uchun jismoniy faollikni oshirish, ularning harakat ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlashga yo'naltirilgan maxsus mashg'ulotlar tizimidir. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning jismoniy va psixologik holatini yaxshilash bilan birga, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Adaptiv jismoniy tarbiya nafaqat bolalarning jismoniy rivojlanishiga, balki ularning psixologik barqarorligi va jamiyatga integratsiyasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri rejalashtirilgan jismoniy mashg'ulotlar yordamida bolalar o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, harakat koordinatsiyasini yaxshilash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish

imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu boisdan, inklyuziv ta'lim tizimida adaptiv jismoniy tarbiya dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Ushbu ishning maqsadi adaptiv jismoniy tarbiya sohasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish muammolarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan tahliliy vositalarni shakllantirishdan iborat alqaro tajriba va ilmiy tadqiqotlar. Dunyo bo'ylab olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limda adaptiv jismoniy tarbiya qo'llanilishi o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, ruhiy holati va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab mamlakatlarda inklyuziv ta'lim tizimida adaptiv jismoniy tarbiya muhim o'rn egallaydi. Masalan:

AQShda maxsus jismoniy tarbiya dasturlari orqali nogiron bolalar uchun maxsus sport musobaqalari tashkil etiladi;

Yevropa davlatlarida inklyuziv maktablarda imkonyatsi cheklangan bolalar uchun individual yondashuv asosida jismoniy tarbiya dasturlari ishlab chiqilgan;

Yaponiyada esa jismoniy tarbiya darslarida bolalar jamoadagi ijtimoiy faollikni oshirish uchun teatr va rolli o'yinlardan foydalaniladi Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim tizimida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish orqali bolalarning akademik natijalari ham yaxshilanadi. Jumladan, Kanada, Finlandiya va AQSh kabi davlatlar imkonyatsi cheklangan bolalar uchun maxsus sport dasturlarini ishlab chiqib, ularning jamiyatga integratsiyasini samarali ta'minlamoqda. Ushbu maqolada inklyuziv sinflarda adaptiv jismoniy tarbiya orqali ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlashning ahamiyati va usullari haqida batafsil fikr yuritiladi .

Inklyuziv ta'lim va ijtimoiy moslashuv. Bugungi kunda ta'lim jarayonida inklyuziv yondashuv tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo miqyosida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmogda. Ushbu yondashuv barcha bolalar, jumladan, imkonyatsi cheklangan o'quvchilar uchun ham ta'lim olish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi

### References:

1. Gulyamov, S. S. (2022). Inklyuziv ta'lim tizimida adaptiv jismoniy tarbiya: Nazariya va metodika. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
2. Ishmuhamedov, R. J. (2021). Imkonyat cheklangan bolalar bilan ishlashda maxsus pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.
3. Shuhratova, M. (2023). Inklyuziv ta'limning psixologik asoslari. Ilmiy-uslubiy qo'llanma.
4. Umarova, G. (2022). Jismoniy tarbiya darslarida adaptiv metodlarni qo'llash. Pedagogika jurnali, 3-son.
5. World Health Organization. (2021). International Perspectives on Disability and Education. Geneva.
6. Azimov, A. (2024). Jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi. Toshkent.
7. Karimova, N. A. (2023). Zamonaviy jamiyatda inklyuziv ta'limni tashkil etish muammolari. Research Focus International Scientific Journal, 2(1), 58-65.
8. Smith, J., & Brown, L. (2019). Global Trends in Adaptive Physical Education: Experiences of USA, Canada, and Finland. International Journal of Inclusive Education, 15(2), 210-225.